

texnikum pedagogik jamoasining faoliyatini o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlashga, o'quvchilarga ta'lim berish sifatini oshirishga yo'naltirish;

oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda o'quv-metodik jarayonni tashkil etish, moddiy-texnik bazadan unumli foydalanish masalalarini ko'rib chiqish;

texnikum faoliyati yo'nalishlari bo'yicha axborotlar va hisobotlarni eshitish, ta'lim tashkilotining sanitariya-gigiyenik holati, yong'inga qarshi amalga oshiriladigan ishlar, mehnatni muhofaza qilish, o'quvchilarning sog'lig'i va hayotiga oid hamda boshqa masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish;

texnikum guruh murabbiylari faoliyati to'g'risidagi axborotlarni eshitish;

qabul komissiyasining texnikumga o'quvchilarni qabul qilish yuzasidan hisobotini eshitish;

o'quvchilarga ta'lim berishda o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralarini ko'rish;

o'quvchilarni yuksak ma'naviy-axloqiy, umuminsoniy va milliy ruhda, o'z Vatani, xalqini ardoqlovchi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish;

xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari kadrlar tayyorlash masalalarini muhokama qilib borish;

texnikumda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

o'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish, kursda qoldirish, chetlashtirish, o'qishga tiklash, bitiruvchilarga o'qishni tamomlaganlik to'g'risidagi davlat namunasidagi hujjatlar berish masalalarini ko'rib chiqish;

Texnikum bitiruvchilariga beriladigan diplom va diplom ilovalari, sertifikat blankalari, dublikatlar bilan ta'minlash hamda QR-kod qo'yish tizimi orqali to'ldirilishi va tarqatilishini ta'minlash;

Texnikum bitiruvchilarini bandligini ta'minlash uchun ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarni jalb qilgan holda mehnat yarmarkalari va "Karyera kuni" tadbirlarini tashkil qilish;

Texnikum bitiruvchilarining bandligini ta'minlash va monitoringini yuritish;

yuqori malakali pedagoglarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh pedagog o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish;

pedagog kadrlarga dars soatlari taqsimotlarini muhokama qilish va guruh rahbarlari hamda ishlab chiqarish ta'limi ustalarini guruhlarga biriktirish masalalarini ko'rib chiqish;

o'z vakolati doirasida ichki hujjatlarni tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

chin yetim, yetim, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish masalalarini ko'rib chiqish;

direktor o'rinbosarlari, tarkibiy bo'linma rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

Kengash texnikum faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa muhim masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.